

SOMONIYLAR DAVLATINING BOSHQARUV TIZIMI VA DAVLAT MANSABLARI

To'xtasinov Mira'zam Abdujabbor o'g'li

Namangan Davlat Universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Somoniylar davlatining boshqaruv tizimi, davlatda mavjud bo'lgan mansablar hamda ularning vazifalari, davlat boshqaruvida o'tkazilgan islohotlarga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Devoni vazir, devoni mustafiy, devoni amid al-mulk, devoni al-rasail, devoni sohib-ash-shurot, devoni sohib al-borid, devoni muhtasib, devoni mamlakai xos, devoni vaqf, devoni qozi az-ziyo, davlat mulklari devoni, rais, dorug'a, shihna, qutvol, hojib.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация об административной системе государства Саманидов, должностях и их обязанностях, а также реформах государственного управления.*

Ключевые слова: *Девани Вазир, Девани Мустафи, Девани Амид аль-Мульк, Девани ар-Расайл, Девани Сахиб-аш-Шурат, Девани Сахиб аль-Борид, Девани Мухтасиб, Девани Малмлай Хос, Девани Вақф, Девани Казии Аз-Зия, Государство Управление имущества, председатель, Даруга, Шихна, Кутвол, Хаджиб.*

Abstract: *This article provides information about the management system of the Samani state, positions and their duties, as well as reforms in state administration.*

Key words: *Devani wazir, Devani Mustafi, Devani Amid al-Mulk, Devani ar-Rasail, Devani Sahib-ash-shurot, Devani Sahib al-Borid, Devani Mukhtasib, Devani Malmlai Khas, Devani Waqf, Devani Qazi az-ziya, State property. Management, Chairman, Daruga, Shikhna, Qutvol, Hajib.*

KIRISH

Somoniylar Movarounnahr va Xurosonda mustaqil davlat tuzish uchun avvalo kuchli markazlashgan hokimiyat tuzish kerakligini yaxshi tushunishgan. Bu ayniqsa, Ismoil Somoniy davrida dolzarb masalaga aylangan edi. Yirik yer egasi bo'lgan Ismoil Somoniy birinchi navbatda mahalliy zodagonlar va savdogarlarning manfaatlarini ko'zlab ish tutadi. Davlatning iqtisodiy kuch-qudratini oshirish, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilikni va savdoni rivojlanishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish lozim edi. Shu maqsadda Ismoil Somoniy katta va yaxshi qurollangan, saralangan qurolli kuchlarni tashkil qilishga kirishdi. U ayniqsa, turk g'ulomlaridan iborat qismlarni tuzishga katta e'tibor berdi. Natijada Somoniylar davlati tez orada musulmon Sharqidagi markazlashgan kuchli davlatga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatning kuch-qudratini mustahkamlash maqsadida Ismoil Somoniy bir qancha islohotlar o'tkazdi. Jumladan islohotlardan biri davlatni boshqarish ma'muriyatini joriy qilish bo'ldi. Bu ma'muriyat dargoh - amir saroyi va devon - davlat idorasi, vazirliklardan

iborat bo'lgan. Davlatni boshqaruvchi oliy hukmdor amir unvoniga ega edi. Ismoil Somoniy o'z davrida markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini joriy etgan. Somoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlashda Nuh II Somoniyning ma'rifatli vazirlari Abdulloh Muhammad Jayhoniy va Abulfazl Muhammad Balamiylarning xizmatlari katta bo'lgan. [1.-B.351] Somoniylar hukmronligi davrida bosh vazir lavozimiga asosan shu ikki sulola vakillari tayinlangan. Davlat majmui dargoh (amir saroyi) va devonga (vazirliklar, davlat idorasi) bo'lingan edi. Saroyda - siyosiy hokimiyat sohibi xoras qo'l ostida bo'lib, u oliy hukmdor farmonlari ijrosini nazorat qilgan. Dargoh hamda boshqa muhim davlat idoralarning xavfsizligini amalga oshirish xizmatini bosh hojib va uning xodimlari olib borgan. Saroyda sharbatdorlar, dasturxonchilar, tashtdorlar, otboqarlar, xo'jalik bekalari kabi turli xizmatchilar bo'lishgan. Saroydagi barcha xo'jalik ishlarini vakil boshqargan. Vakil saroydagi eng e'tiborli kishilardan biri hisoblangan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asaridagi ma'lumotlariga ko'ra, Nasr II davrida Buxoro registonida davlatdagi 10 ta devonga atab maxsus 10 ta bino qurilgan. [2.-B.378] Davlatda quyidagi devonlar faoliyat ko'rsatgan;

1. Devoni vazir (bosh vazir devoni). Somoniylar davlatining eng katta devoni bo'lib, bu devonga qolgan barcha devonlar bo'ysungan. Bosh vazir devoni barcha ma'muriy, siyosiy, xo'jalik va harbiy mahkamalarni nazorat qilgan.

2. Devoni mustafiy (moliyaviy ishlar devoni). Bu devon davlatning barcha moliyaviy ishlarini bajargan va nazorat qilgan. Devon xazinador tomonidan boshqarilib, uning ixtiyorida hisobchilar, munshiy va kotiblar, daftardorlar bo'lgan. 3. Devoni amid al-mulk, yoki al-rasail (rasmiiy hujjatlar devoni). Bu devon davlat ahamiyatiga molik bo'lgan barcha hujjatlarni tuzish va ishlab chiqish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu devon chet davlatlar bilan bo'lgan diplomatik munosabatlarni ham nazorat qilgan.

4. Devoni sohib-ash-shurot (harbiy ishlar devoni). Bu devon davlatning butun harbiy ishlarini nazorat qilgan, jumladan, amirning shaxsiy qo'shinini (gvardiyasini) boshqargan. Ushbu devon boshining maxsus yordamchisi - ariz bo'lgan. U mahkama va uning boshlig'i amir qo'shini xazinasi bilan shug'ullangan. Qo'shinga bir yilda to'rt marta maosh to'langan. Bu devon harbiy intizomni ta'minlab turgan.

5. Devoni sohib al-borid (xat-xabarlar nazoratchisi devoni). Ushbu devon markazda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar, xabarnomalarni viloyat va shaharlarga yetkazish bilan shug'ullangan. Bu devonning viloyatlardagi boshlig'i faqat markazga bo'ysungan. Bu devon xodimlari viloyat va shaharlarda bo'lib turadigan, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan voqealarni markazga yetkazib turgan. Shuningdek, bu devon davlat elchilari, viloyat va shaharlar hokimlari ustidan maxfiy nazorat o'rnatgan.

6. Devoni muhtasib (bozorlar va ko'chalarda shariat qonun-qoidalariga rioya qilishni nazorat qiluvchi devon). Bu devon xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartib-intizomni, tosh-tarozini nazorat qilish edi. Aholi tomonidan shariat qonun qoidalariga rioya qilishning nazorati ham shu devon zimmasida bo'lgan. Ushbu devonboshi o'z mirg'azab (xodimlari bilan barcha shaharlarda faoliyat ko'rsatgan.

7. Devoni mamlakai xos (davlat ishlari boshqaruvchisi devoni). Bu devon saroy ta'minoti bilan bog'liq sarf xarajatlarni nazorat qilgan. Muhim davlat ishlari va ayniqsa, xazina kirim-chiqimini nazorat qilish ham shu devon zimmasida bo'lgan. 8. Devoni vaqf (vaqf yerlari devoni). Bu devon mamlakatdagi masjidlar, madrasalar, umuman diniy muassasalar ixtiyorida bo'lgan yer-suv, mol-mulk kabilarni boshqargan.

9. Devoni qozi az-ziyo (qozilik ishlari devoni). Bu devonni davlatning bosh qozisi boshqargan. Devon barcha viloyatlar va shaharlardagi qozilar faoliyatini nazorat qilib turgan.

10. Davlat mulklari devoni. Bu devon hukmdor sulolaga tegishli mol-mulk boshqaruvi, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullangan.

Yuqorida keltirib o'tilgan devonlaming barchasi (Sohib al-borid devonidan boshqa) mahalliy hokimlar va oliy markaziy hokimiyatga bo'ysungan. Ta'kidlash lozimki, Somoniylar davrida mahalliy boshqaruv tizimi ham samarali faoliyat yuritgan. Viloyatlar boshqaruvchilari - hokim, shahar boshliqlari turli davr, ijtimoiy holatlariga ko'ra rais, dorug'a, shihna, qutvol, hojib va boshqa nomlar bilan atalgan. Viloyatlar hokimlari ko'p hollarda hukmron sulola vakillaridan va katta ta'sirga ega bo'lgan yirik zodagonlardan tayinlangan. Somoniylar davrida viloyat va tumanlar amir tomonidan tayinlangan hokimlar tomonidan idora qilingan. Odatda bunday lavozimga mahalliy boy zodagonlar tavsiya etilgan. Bunda yuqori tabaqaga mansub bo'lishdan tashqari, ma'lum bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishligi talab etilgan. Jumladan amaldorlar arb, turk va fors tillarini, Qur'oni Karim va shariat ilmlarini yaxshi bilishi hamda turli fanlardan ma'lum darajada ilmlarni bilishi zarur bo'lgan. [3.-B.143] Har bir o'lkalar va viloyatlar hokimi ko'ngillilardan iborat qo'shin saqlagan. Odatda ko'ngillilar ozod va boy dehqonlarning o'g'illaridan iborat bo'lgan. Ko'ngillilar bo'linmasi harbiy holat vujudga kelgan vaqtda yig'ilgan. Ular Narshaxiyning ma'lumotlariga qaraganda, viloyat va davlat daromadi hisobiga saqlanganligini keltirib o'tilgan. Mamlakat xavsizligi va davlat chegaralarini mustahkamligini ta'milash Somoniylar davrida eng muhim masalalardan biri bo'lgan. Shu tufayli davlat sarhadlari viloyat qo'shinlari va g'oziyalarning eng ilg'or qismlari tomonidan qo'riqlangan. Somoniylar davlatida musulmon ruhoniylarining ta'siri nihoyatda kuchli bo'lgan. Ular markaziy hokimiyat ishlarida ham faol ishtirok etishgan. Somoniylar davlatining diniy hayotida hanafiylar mazhabiga mansub ruhoniylar barcha diniy lavozimlarni o'z qo'llariga olishgan. Ruhoniylarning boshlig'i "ustod", keyinchalik "Shayx ul-islom" deb atalgan. Ustodan so'ng o'z lavozimi bo'yicha ruhoniylar orasida "xatib" turgan. U jome' masjidlarida juma namozida xutba o'qish huquqiga ega bo'lgan. Bu davrda Buxoro Sharqdagi islom olamining eng nufuzli markazlaridan biriga aylandi. Movarounnahrda dastlabki madrasalarning bu yerda barpo etilishi ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan fikrlarimizning yorqin dalilidir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash joizki, Somoniylar davlatining boshqaruv tizimi Tohiriylar, Safforiylar va G'aznaviylarning davlat boshqaruvidan tubdan farq qilgan. Markaziy boshqaruv tizimining yakdilligi va barcha mansablarni to'g'ridan - to'g'ri hukmdorga bo'ysunishi va hisobot berishi markaziy hokimiyatda kuchli intizom borligidan

darak beradi. Saroydagi va mahalliy boshqaruvdagi mansablarning barchasi o‘z mehnatlari va sadoqatlari bilan mamlakat rivoji uchun o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т.: Фан, 1996. –Б. 120.
2. Неъматов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Ибн ал-Асир. Ал – Камил фит тарих. –Т.: Цюрих, 2005. –Б. 604.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –Т.: Sharq. 2010. В. 511
5. Homidiy Н. Daholar davrasi. –Т. О‘qituvchi. 2011. –В. 352.
6. Эшов Б. Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
7. Камолитдин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholar press, 2017. –В. 93.
8. Уватов У. Буюк юрт алломалари. –Т.: О‘zbekiston. 2020. Б. 426.
9. Boydedayev D. /Buxoro faxri – Ismoil Somoniy. Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. 14-son. 28.05.2022-y
10. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-bakr-narshaxiy-899-959/>
11. <https://arboblar.uz/uz/people/abu-bakr-narshakhi>.
12. [.http://uzbekistan-geneva.ch/abu-bakr-narshaxiy-o-rta-osiyo-tarixida-chuqur-iz-qoldirgan-olim.html](http://uzbekistan-geneva.ch/abu-bakr-narshaxiy-o-rta-osiyo-tarixida-chuqur-iz-qoldirgan-olim.html).
13. <https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-xorazmiy/>.
14. <https://xojabuxoriy.uz?p=104&lang=uz>.
15. <https://oriftolib.uz/807>.
16. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kursishi/item/11714-somoniylar-davlati-va-huquqi>.
17. <https://moturidiy.uz/oz/news/846>.